

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti -o'zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixi, hozirgi holati, boshqa xalqlar tillari va adabiyotlari bilan aloqalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy muassasa. 1934-yil yanvarda Madaniy qurilish ilmiy tadqiqotlar institutining (1931-33) filiali bo'limlari asosida tashkil topgan. 1937-yil rus shoiri A.S.Pushkin nomi berilgan. 1939-yilda Til, adabiyot va tarix instituti tarzida qayta tashkil etilgan. 1940-yildan SSSR Fanlar Akademiyasi O'zbekiston filiali, 1943-yildan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibidagi institut. Institut negizida 1943-yilda Tarix instituti, 1967-yilda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, 1968-yilda O'zbek sovet ensiklopediya Bosh tahririyati tashkil topdi. 1991-yilda institut 2 mustaqil institutga — Adabiyot va Tilshunoslik institutlariga ajraldi. 1991-yilda Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. 1998-yilda bu institutlar birlashtirilib, hozirgi nomidagi institut tashkil topdi. Institutga turli yillarda O.Hoshimov (1934-37), I.Ahmedov (1937), F.Kamolov (1938), S. Husainov (1938-40), M. Yo'ldoshev (1940), V. Zohidov (1941), Amir Najib (1942-44), H.Zarifov (1944-48), I.Sultonov (1948-50), Oybek (1950), Y.Sultonov (1951-52), V.Reshetov (1953-55), S.Qosimov (1955-58), A.Qayumov (1958-61), H.Qurbonova (1962-64), Q.Xonazarov (1964-71), Sh.Shoabduraxmonov (1971-74), M.Nurmuhamedov (1974-75), M.Qo'shjonov (1975-86), B.Nazarov (1986-90), T.Mirzayev (1998-yildan) rahbarlik qiddilar. Institut faoliyati Fitrat, Elbek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, G'ozim Olim, Olim Sharafiddinov, H.Zarifov, M.Afzalov, Izzat Sulton, M.Alaviya, S. Husainova, Faxri Kamol, Qayum Ramazon, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, S.Ibrohimov, F. Abdullayev, G'. Karimov, J. Sharipov, V.M. Jirmunskiy, Y.E.Bertels, A.N.Kononov, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, P.Shamsiyev, Xolid Rasul, H.Sulaymonov, H.Yoqubov, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, N.Karimov, B. Nazarov, E.Begmatov, E.Fozilov, P.Qodirov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, C.Faniyeva, M. Qo'shjonov, U.To'ychiyev, S Akobirov, N.Mamatov kabi atoqli yozuvchi va olimlar faoliyati bilan bog'liq; Institut tarkibida 10 ta bo'lim bor: folklor, mumtoz adabiyot tarixi, 20-asr adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy aloqalar va tarjima nazariyasi, hozirgi o'zbek tili, o'zbek tili tarixi va dialektologiyasi, terminologiya, leksikologiya va leksikografiya.

Institutda 20 dan ortiq fan doktori, 40 ga yaqin fan nomzodi bor.

Institut olimlari bir necha avlodining ilmiy ijodiy faoliyati tufayli O'zbekistonda asoslari ma'rifatparvarlik va jadidchilik mafkurasiga borib taqaladigan yangi adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va tilshunoslik yuzaga keldi. O'zbek tili tarixi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, stilistikasi va terminologiyasi masalalari har tomonlama tadqiq etildi, turli davrlarda o'nlab leksikologik va terminologik lug'atlar yaratildi. Bular orasida „O'zbek dialektologiyasi“, 2 jildli „O'zbek tili grammatikasi“, „O'zbek tilining tarixiy grammatikasi“, 3 jildli „O'zbek adabiy tili taraqqiyoti“, „XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklari tili“, 1 va ko'p jildli o'zbekcha - ruscha va ruscha-o'zbekcha lug'atlar, 2 jildli „O'zbek tilining izohli lug'ati“, 1 va 4 jildli „Navoiy asarlari lug'ati“, „O'zbek xalq shevalari lugati“, „O'zbek tilining imlo lug'ati“ kabi asarlar bor.

Adabiyot va folklor merosini to'plash, nashr etish, o'rganish, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalarni tadqiq etish sohalarida ham jiddiy yutuqarga erishildi.

5 va 2 jildli „O'zbek adabiyoti tarixi“, 2 jildli „Adabiyot nazariyasi“, 3 jildli „Bolalar adabiyoti tarixi“ 3 jildli „O'zbekistonda tarjima tarixi“, 7 jildli „O'zbek xalq, ijodi bo'yicha tadqiqotlar“ turkumi, 3 jildli „O'zbek folklori ocherklari“ kabi kitoblar nashr etildi. Alisher Navoiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi shoir va yozuvchilar asarlarining ko'p jildli akademik nashrlari tayyorlandi. 2 jildli „O'zbek maqollari“, 37 jildli „O'zbek xalq ijodi“ namunalari chop etildi.

Istiqlol sharofati bilan o'zbek adabiyoti, folklori va tilini o'rganish tom ma'noda yangilandi. Avvalo, o'zbek adabiyotining sho'ro davrida o'rganilmagan, chala yoxud noto'g'ri talqin qilingan qirralarini tadqiq etishga kirishildi. Jumladan, tasavvuf adabiyotining Yassaviy, Boqirg'oniy, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor singari yetakchi namoyandalari ijodi har tomonlama tadqiq etildi. Husayn Boyqaro, Ubaydiy, Feruz, Umarxon

singari hukmdor ijodkorlar hayoti va ijodini o'rganishga kirishildi.

Institutda o'zbek xalqining ming yillik og'zaki ijodi namunalarining to'la va mukammal nashrlarini tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, „Alpomish“ dostoni yaratilganining 1000-yilligi munosabati bilan dostonning akademik nashri birinchi marta to'la holda amalga oshirildi. Institutda o'zbek folklori va adabiyotining eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyotini ko'rsatuvchi 12 jildli tarixini yaratishga kirishildi.



Mustaqillik yillarida institutning xalqaro aloqalari kengaydi. „Alpomish“ dostoni Germaniya va Turkiyada nashr qilindi, institut olimlari tadqiqotlari Xitoy, Germaniya, Rossiya va Turkiyadagi nufuzli jurnali va to'plamlarda chop etilmoqda, shuningdek, AQSH, Yaponiya, Koreya, Turkiya mamlakatlari fuqarolari institutda ilmiy ish olib bormoqda.



Institutda doktorantura ta'limi yo'lga qo'yilgan. Institut huzurida doktorlik dissertatsiyalari himoyasi bo'yicha 2 ixtisoslashtirilgan kengash faoliyat ko'rsatmoqda. Institutda 1958-yildan „O'zbek tili va adabiyoti“ jurnali nashr etiladi.